

*Istamova Shaxinabonu Rahim qizi**Toshkent davlat yuridik universiteti**Xususiy huquq fakulteti 2-kurs talabasi*istamovashaxinabonu@gmail.com

ISLOM BANKINING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Islom bankchiligi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab, an‘anaviy moliya tizimiga muqobil moliyaviy model sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu maqolada islom banklarining asosiy tamoyillari, xususan, foizning (riba) taqiqlanishi, tavakkalchilik (gharar) va noaxloqiy investitsiyalar (maysir) taqiqlari, shuningdek, mudaraba, musharaka, murabaha va ijara kabi moliyaviy vositalar tahlil qilinadi. Islom moliyasining huquqiy asoslari Qur‘on, hadis va fiqh mezonlariga asoslanib tartibga solinishi, shuningdek, xalqaro miqyosda rivojlanishi va milliy qonunchilik tizimidagi o‘rni ham yoritiladi. Mamlakatimizda islom banklarini tashkil etishning dolzarbligi va ushbu tizimning iqtisodiy hamda huquqiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: islom bankchiligi, islom moliyasi, shariat, fiqh, mudaraba, musharaka, murabaha, ijara, riba, gharar, maysir, shariat kengashi.

Аннотация: Исламский банкинг занимает важное место в современной экономике и становится альтернативной финансовой моделью традиционной финансовой системе. В данной статье анализируются основные принципы исламского банкинга, в частности запрет процентов (риба), запрет на рискованные (гарар) и аморальные инвестиции (майсир), а также такие финансовые инструменты, как мудараба, мушарака, мурабаха и иджара. Правовые основы исламских финансов регулируются на основе критериев Корана, хадисов и юриспруденции, а также их развития на международном уровне и места в национальной правовой системе. Подробно анализируются актуальность создания исламских банков в нашей стране, экономические и правовые аспекты этой системы.

Ключевые слова: исламский банкинг, исламские финансы, шариат, фикх, мудараба, мушарака, мурабаха, иджара, риба, гарар, майсир, шариатский совет.

Abstract. Islamic banking has taken an important place in the modern economy and is emerging as an alternative financial model to the traditional financial system. This article analyzes the basic principles of Islamic banking, in particular, the prohibition of interest (riba), the prohibition of risk (gharar) and unethical investments (maysir), as well as financial instruments such as mudaraba, musharaka, murabaha and ijara. The legal basis of Islamic finance is regulated based on the criteria of the Quran, hadith and jurisprudence, as well as its development at the international level and its place in the national legislative system. The relevance of the establishment of Islamic banks in our country and the economic and legal aspects of this system are analyzed in depth.

Keywords: Islamic banking, Islamic finance, Sharia, Fiqh, mudaraba, musharaka, murabaha, ijara, riba, gharar, maysir, Sharia Council.

Islom bankchiligi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim o'rinni egallagan bo'lib, mustaqil moliyaviy tizim sifatida ham shakllanib ulgurgan. Ushbu tizimning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda barcha moliyaviy operatsiyalar shariat qonunlariga, ya'ni, islom huquqi – fiqhga mos bo'lishi kerak. Islom bankchiligi faqatgina moliyaviy harakatlarni boshqarishning usuli bo'libgina qolmay, balki jamiyatni adolatli va axloqiy tamoyillar asosida rivojlantirishni maqsad qilgan. Shu bois, islomiy banklar, o'z faoliyatlarini faqat moliyaviy foyda olish bilan cheklanmay, balki shariat qonunlariga muvofiq bo'lib, harom daromadlarga qarshi kurashishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'yadilar. Biroq, bu tizimning muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi faqatgina iqtisodiy, balki huquqiy asoslarga ham bog'liqdir. Islom banklari faoliyatining huquqiy asoslari, shariatga muvofiqlikni ta'minlashda va ularning faoliyatini tartibga solishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, islom bankchiligi deganda nima tushuniladi o'zi? Islom banki – islom moliyasi yoki sha'riy moliya tushunchalari bir xil ma'noni anglatadi. Islom banki deganda islom dinining tartib-qoidalariga, ya'ni, sha'riyat qoidalariga muvofiq ish yurituvchi, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi bank tushuniladi. Islom bankini yuritishning asosiy prinsiplari foyda va zararni teng miqdorda bo'lish hamda foiz evaziga qarz berish va qarz olishni taqiqlashdan iborat.

Bugungi kunga kelib iqtisodiyotda islom moliyasining ulushi sezilarli ravishda ko'payib bormoqda. Jumladan, 2022-yilgi statistikaga ko'ra global miqyosda islom moliyasi aktivlarining miqdori 4.5 trillion AQSh dollaridan ko'proq qiymatni tashkil etadi [1]. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarning bank-moliya tizimida islomiy banklar, islomiy moliya xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda ham ushbu turdagi banklar tizimini yaratish uchun bir qator sa'y-harakatlari qilinmoqda. Yurtimizda islom banklarini tashkil etishning zarurati qanchalik dolzarb ekanligini 2024-yil 20-avgustda prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida hozirgi davrda tadbirkorlarning 38 foizi islom moliyasi asosida resurs olish istagida ekanini ta'kidlagani, islom banklari tizimini yo'lga qo'yish orqali ko'plab xorijiy investitsiya imkoniyatlari hamda 5 milliard dollarlik qo'shimcha resurs paydo bo'lishiga turtki berishini aytganligidan ham sezishimiz mumkin [2].

Quyida islom banklarining huquqiy asoslari, ularning shariat qonunlariga mosligi, milliy va xalqaro qonunchilik tizimlaridagi o'rni, hamda bu tizimlarning rivojlanishidagi huquqiy muammolar tahlil qilinadi. Islom bankchiligining huquqiy taraflarini chuqurroq o'rganish, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglash va kelajakda rivojlanish istiqbollari tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islomiy moliya tizimi, xususan islom bankchiligi uchun harakatning ildizlari musulmonlarning tarixiy tajribasiga borib taqaladi. O'tgan asrga kelib ko'pchilik musulmonlar foiz orqali foyda ko'rishga asoslangan an'anaviy moliya tizimida ish yuritishni noqulay deb hisoblashgan va bu islom dunyosining moliyaviy mustaqillikka erishishiga turtki beruvchi muhim omil bo'lgan. Islomiy moliya faqat musulmon davlatlarida emas, balki butun dunyo bo'ylab an'anaviy moliya tizimining muqobili sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunga kelib HSBC, Citibak kabi yirik xalqaro banklar ham o'z mijozlariga islomiy moliya xizmatlarini taklif qilishmoqda. Islomiy moliya har yili 15–20% o'sish sur'atini ko'rsatib, global moliya bozorining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda 75 dan ortiq mamlakatda yuzlab

Islomiy moliyaviy institutlar va maxsus Islomiy bo'limlar faoliyat yuritmoqda. Islom bankchiligi nafaqat musulmon davlatlarida, balki Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya kabi g'arbiy davlatlarda ham rivojlanmoqda. London xalqaro miqyosda Islom moliyasi markazlaridan biri hisoblanadi [3, 2-8-b].

Foiz (riba) taqiqlanishi Islom moliyasini ajratib turadigan yagona tamoyil emas. Boshqa tamoyillar qatoriga ortiqcha noaniqlik, ya'ni, tavakkalchilikka asoslangan bitimlar(gharar), qimor (maysir) va noaxloqiy bizneslarga investitsiya kiritishning taqiqlanishi ham kiradi. riskni taqsimlash, axloqiy investitsiyalar va moliyaviy inklyuziyani (moliya xizmatlariga hammaga teng imkoniyat yaratish) ilgari suradi." Islom moliyasi barqaror va ijtimoiy adolatli tizim yaratishga qaratilgan. An'anaviy banklarda kapital egasi (bank) daromadni kafolatlangan foiz shaklida oladi, lekin Islom banklarida mijoz va bank foydani taqsimlash tamoyiliga asoslanadi.

Islom bankchiligining normalari musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karim, hadislar va ularning sharhlariga asoslanadi. Qur'on Islom moliyasining asosiy tamoyillarini belgilaydi, eng asosiysi esa riba (foiz) va gharar (haddan tashqari noaniqlik) taqiqlanishidir. Ushbu tamoyillar adolat, halollik va axloqiy moliyaviy operatsiyalarni targ'ib qiluvchi turli oyatlardan kelib chiqadi. Payg'ambar Muhammadning (s.a.v) so'zlari va amallari (Hadis) Islom moliyasining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ko'plab hadislar foiz asosidagi bitimlarni qat'iy taqiqlaydi va savdoda adolat hamda o'zaro rozilikni ta'kidlaydi. Islom huquqi (fiqh) Qur'on va Hadis asosida olimlar tomonidan chiqarilgan sharhlar va hukmlardan iborat. Turli huquqiy maktablar moliyaviy bitimlarga nisbatan biroz farqlanuvchi qoidalarni ishlab chiqqan.

Islom banklari shariat tamoyillariga mosligini ta'minlash uchun Islom huquqi bo'yicha mutaxassislardan iborat Sha'riat kengashlarini tashkil qiladi. Ushbu kengashlar moliyaviy mahsulotlarni ko'rib chiqadi va ularning shariatga mosligi bo'yicha fatvolar chiqaradi. Har bir Islom bankida Shariat kengashi bo'lishi shart. Ushbu kengash bank mahsulotlari Qur'on va Hadis talablariga javob berishini nazorat qiladi. Islom moliyasi doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi sababli, yangi moliyaviy vositalar shariatga mos ekanligini aniqlash uchun Ijmo' va Qiyas qo'llaniladi. Ijmo' (ittifoq) va Qiyas (analogik dalillar) Islom moliyasida yangi moliyaviy rivojlanishlarni shar'iy jihatdan talqin qilish uchun qo'llaniladigan qo'shimcha manbalardir. Ushbu metodlar olimlarga zamonaviy moliyaviy vositalarga Islomiy hukm berish imkonini beradi.

Islom bankining moliyaviy asoslarini tashkil etuvchi vositalar bular – mudaraba, musharaka, murahaba, ijara hamda islomiy shartnomalar hisoblanadi. Quyida ularni qisqacha aytib o'tamiz.

Mudaraba – kapital egasi (rab al-mal) va tadbirkor (mudarib) o'rtasidagi sheriklik. Kapital egasi mablag' ajratadi, tadbirkor esa biznes yuritadi. Foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, lekin zarar faqat kapital egasining zimmasida bo'ladi (agar tadbirkor moliyaviy suiiste'mol yoki e'tiborsizlik qilmasa).

Musharaka – ikki yoki undan ortiq tomonlarning umumiy biznesga investitsiya kiritib, foyda va zararni oldindan kelishilgan ulushga qarab taqsimlashidir. Musharaka mudarabadan farqli ravishda har ikki tomon ham investitsiya kiritadi va zarar ham investitsiya ulushiga qarab taqsimlanadi.

Murabaha – islom banklarida eng keng tarqalgan moliyaviy vositalardan biri bo‘lib, bank mijoz uchun mahsulotni sotib olib, ustama qo‘shilgan narxda mijozga sotadi. Bunda oldindan kelishilgan narx bo‘yicha savdo amalga oshiriladi. Murabaha foizli kredit emas, chunki bunda aktiv real sotib olinadi va mijozga yetkazib beriladi.

Ijara – bankning mol-mulk yoki aktivni sotib olib, mijozga ijaraga berish tamoyili asosida ishlaydi. Bu moliyaviy vosita odatiy lizing tizimiga o‘xshash, lekin foiz emas, ijara to‘loviga asoslangan. Ijara muddati tugagach, mijoz aktivni sotib olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Shuningdek islomiy moliya tamoyillariga asoslangan shartnomalar – istisna hamda salam ham muhim moliyaviy vositalardan hisoblanadi:

- **Istisna** – buyurtma asosida mahsulot yoki inshootni ishlab chiqarish yoki qurish shartnomasi. Mijoz bankka mahsulot ishlab chiqarishni buyurtma beradi, bank esa ishlab chiqaruvchi bilan shartnoma tuzadi.
- **Salam** – oldindan to‘lov shartnomasiga asoslangan moliyalashtirish turi bo‘lib, bunda mijoz kelajakda yetkazib beriladigan mahsulot uchun oldindan to‘lov qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida islom bankini, islom moliya xizmatlarini joriy etish bo‘yicha so‘nggi yillarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 21.04.2022 yilda qabul qilingan O‘RQ-765-sonli “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida mikromoliya tashkilotlarining islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatishga haqli ekanligi belgilandi [4]. 2024-yilning 26-iyul sanasida esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 3536-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom qabul qilindi [5].

O‘zbekistonda islom banki institutini joriy etish bo‘yicha harakatlar jadallashtirilishi zarur. Zero, bu orqali ko‘plab tadbirkorlar uchun qulay ish muhiti yaratilishi, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi oshirilishi mumkin. Shu maqsadda qonunchilikka quyidagi takliflarni bera olishimiz mumkin:

- Islom banklarini tartibga soluvchi **maxsus qonun** qabul qilish,
- Islomiy moliyaviy vositalarni qonuniylashtirish va **soliq imtiyozlari** berish
- Markaziy bank tomonidan **islomiy moliyalashtirish standartlarini joriy etish**,
- **Shariat kengashini tashkil etish va huquqiy maqomini mustahkamlash**
- **Mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish**,
- **Kripto-aktivlar va islom moliyasining bog‘liqligini tartibga solish** lozim.

XULOSA

Islom bankchiligi zamonaviy iqtisodiyotda tobora muhim ahamiyat kasb etib, shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizim sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizim foiz (riba)dan voz kechish, tavakkalchilikka asoslangan bitimlardan qochish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash kabi axloqiy qoidalarga asoslanadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida islom moliyasining o‘rish sur‘ati yuqori bo‘lib, u an‘anaviy bank tizimiga muqobil barqaror model sifatida e‘tirof etilmoqda. Islom banklari faqat moliyaviy daromad olishga emas, balki halol va adolatli iqtisodiy muhit yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shariatga mosligini ta‘minlashda huquqiy jihatlar muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ham islom banklarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha sa‘y-

harakatlar amalga oshirilmoqda va bu nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga, balki xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, islom bankchiligining huquqiy asoslarini mustahkamlash va uni amaliyotga joriy etish kelajakda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

REFERENCES:

1. London Stock Exchange Group and Islamic Corporation for the Development of the Private Sector. 2025. "Islamic Finance Development Report." LSEG Solutions. https://solutions.lseg.com/IslamicFinance_ICD_LSEG.
2. Kun.uz. 2025. "38 foiz tadbirkorlar islom moliyasi asosida resurs olish istagida – Prezident" Kun.uz <https://kun.uz/02654392>
3. Visser, Hans. 2009. Islamic Finance: Principles and Practice. Edward Elgar Publishing.
4. O'zbekiston Respublikasining 20.04.2022 yildagi O'RQ-765-sonli "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-5972411>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 26.07.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan 3536-sonli "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7036330>